

Asosiy ko'rsatkichlari.

2017 yilning 1 oktabr holatiga bankning jami aktivlari yil boshiga nisbatan 117% ga o'sgan. Daromad keltiruvchi aktivlar umumiy aktivlarning 76% tashkil qildi

Bank kapitalining hajmi 2017 yil 1 yanvarga nisbatan 71% ga o'sgan.

Bank daromadlarining hajmi ko'payib bormoqda va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 49% oshgan holda, olingan sof foyda miqdori o'z navbatida 104.1 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

"Asaka" bank aksiyadorlari ro'yxati

№	Aksiyadorlar nomi	Aksiyalar miqdori (dona)	Aksiyalar nominal qiymati paketining	Ulushi (%)da
1	O'z.R. Moliya vazirligi	2 260 990 260	314 300 256 042,60	54,14%
2	"Uzavtosanoat" AK	540 575 100	75 145 344 651,00	12,94%
3	O'z.R Tiklanish va taraqqiyot fondi	540 000 000	75 065 400 000,00	12,93%
4	"Olmaliq TMK" AJ	254 627 307	35 395 741 946,07	6,10%
5	Buxoro NQIZ UK	228 005 694	31 695 071 522,94	5,46%
6	Navoiy TMK AJ	97 892 577	13 608 047 128,77	2,34%
7	"O'zbekiston temir yo'llari" DATYK	95 635 395	13 294 276 258,95	2,29%
8	"O'zbektelekom" AK	50 445 054	7 012 366 956,54	1,21%
9	Farg'ona NQIZ USHK	40 178 574	5 585 223 571,74	0,96%

10	“Uzmetkombinat” AJ	40 178 574	5 585 223 571,74	0,96%
11	"Uzagrosugurta" DASK	18 576 000	2 582 249 760,00	0,44%
12	"Uzbekinvest" NKEIS	4 665 600	648 565 056,00	0,11%
13	"Xalq Sugurta" MCHJ SK	4 698 000	653 068 980,00	0,11%
JAMI:		4 176 468 135	580 570 835 446,35	100 %

Uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha.

2017 yil boshidan «Asaka» bank tomonidan 2 001,03 mlrd.so'm miqdorida uzoq muddatli investitsion loyihalar moliyalashtirilgan, shu jumladan iqtisodiyot sektorlari:

Sanoat – 852,7 mlrd.so'm.

Qishloq ho'jaligi – 293,3 mlrd.so'm.

Qurilish – 231,2 mlrd.so'm.

Transport va aloqa – 25,5 mlrd.so'm.

Ijtimoiy soha – 178,0 mlrd.so'm.

Boshqa maqsadlar – 420,2 mlrd.so'm.

Ushbu loyihalarni moliyalashtirish natijasida 5 455 ta yangi ishchi o'rinlar barpo etilgan.

«Asaka»bank tomonidan respublikaning barcha regionlarida aholini uy-joy qurilishi fondi bo'yicha podryad tashkilotlarga kredit ajratish yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 627,5mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratilgan, jumladan viloyatlar kesimida:

Andijon viloyati – 36,2 mlrd.so'm;

Buxoro viloyati – 9,5 mlrd. so'm;

Kashkadaryo viloyati – 110,6 mlrd.so'm;

Ferg'ona viloyati – 49,2 mlrd.so'm;

Xorazm viloyati – 32,5 mlrd.so'm.

Qoraqalpog'iston Respublikasi- 176,0 mlrd.so'm.

Surxondaryo viloyati – 66,3 mlrd. so'm

Jizzax viloyati – 62,4 mlrd. so'm

Namangan viloyati – 13,2 mlrd. so'm

Navoiy viloyati– 0,6 mlrd. so'm

Sirdaryo viloyati – 27,0 mlrd. so'm

Toshkent sh - 44,2 mlrd. so'm

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun 1 296,2 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,1 foizni tashkil qildi.

Jumladan, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 80,8 mlrd.so'mni, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kredit mablag'lari 106,1 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,0 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qarorlariga asosan oziq - ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar 239,7 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar 278,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, joriy yilning 1sentyabr holatiga ta'lim muassasalari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyati uchun 9,7 mlrd. so'mdan ortiq kredit mablag`lari ajratildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2017 yilning yanvar-sentyabr oylari davomida "Asaka" bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar hisobiga 8 500 nafardan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bank depozitlari bo'yicha

2017 yil 1 sentyabr holatiga "Asaka" bankning jami aholi omonatlari qoldig'i miqdori o'tgan yilga nisbatan 123 foizga oshgan bo'lsa, shundan muddatli omonatlar qoldig'i o'tgan yilga nisbatan 136 foizga ortdi.

Bank bo'yicha jami 40 ta omonat turi mavjud bo'lib, shundan 27 tasi milliy valyutadagi va 13 tasi xorijiy valyutadagi omonatlar.

Jismoniy shaxslarning o'z omonatlari to'g'risida ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi "SMS-banking" xizmatidan foydalanuvchilari soni 2017 yil 1 sentyabr holatiga 131 mingtadan oshib ketdi.

Savdo va pullik xizmatlar orqali tushumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 151% ga oshgan bo'lsa, shundan terminallar orqali savdo aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 117% ga oshgan.

Kommunal xizmatlardan tushumlar plastik kartalar bilan birga o'tgan yilga nisbatan 103 foizga oshgan.

Plastik kartochkalar biznesini rivojlantirish bo'yicha.

Bank tomonidan 2017 yil 1 oktyabr holatiga 1mln. 926 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 66 ming donaga ko'paygan.

2017 yilning 1 oktyabr holatiga bank tomonidan 11 758 ta terminal o'rnatilgan, shundan savdo terminallari 10 756 donani tashkil qiladi.